



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA XAVFSIZLIK QOIDALARINI O'RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Madaliyeva Xurshida Ulug'bek qizi**

Qo'qon davlat universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

[xurshidamadaliyeva7@gmail.com](mailto:xurshidamadaliyeva7@gmail.com)

Ilmiy rahbar: **Nazirova Go'zal Malikovna**  
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatishning nazariy asoslari, uning jahon hamjamiyatida va o'zimizdagi mahalliy olimlar tomonidan o'rganilganlik darajasi tahlil etiladi. Xavfsizlik haqida bolalarda erta yoshdan boshlab tushunchaning shakllanishi kelgusida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ko'ngilsizliklarning oldini olishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** bola, maktabgacha ta'lim, oila, xavfsizlik, rivojlangan davlatlar.

**Annotation:** This article analyzes the theoretical foundations of teaching life safety rules to preschoolers, the degree to which it has been studied in the world community and by local scientists in our own country. The formation of children's understanding of safety from an early age will help prevent future frustrations.

**Keywords:** child, preschool, family, security, developed countries.

**Аннотация:** В этой статье анализируются теоретические основы преподавания правил безопасности жизни дошкольников, а также степень их изучения в мировом сообществе и среди местных учёных в нашей стране. Формирование у детей понимания безопасности с раннего возраста поможет предотвратить будущие разочарования.

**Ключевые слова:** ребёнок, детский сад, семья, безопасность, развитые страны.

Jahonda maktabgacha yoshdagi bolalarga hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatishni samarali amalga oshirilishda bolalarga nazariy bilim berishdan ko'ra amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun innovatsion o'qitish metodlarini joriy etish, integratsiyalashgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. "Uchinchi ming yillikda tabiatning vayronkor kuchlarining namoyon bo'lishi, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va halokatlar sonining ko'payishi, ijtimoiy xavf xatarlarning ortishi, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat ko'nikmalarining yetishmasligi, yosh avlodda shaxsiy xavfsizlik masalalariga ongli munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik

jarayonlar samaradorligini oshirish”<sup>1</sup> kabi istiqbolli amaliyotlar va “Xavf, fan, ta’lim”<sup>2</sup> mavzusida Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Kengashi kabi manfaatdor tomonlar hamda AQSH, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Indoneziya, Rossiya, Belorusiya kabi davlatlar shug‘ullanmoqda. Shuningdek, maktabgacha 6-7 yoshli bolalarga hayot xavfsizligi qoidalarini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish jarayonlarida zamonaviy ta’lim texnologiyalarni qo‘llash, innovatsion yondashuvlar asosida bolalarda hayot xavfsizligi kompetensiyasini shakllantirish masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, jumladan Kanadaning Toronto universiteti “Bolalar huquqlarini himoya qilish va hayot xavfsizligini ta’minlashda kompleks yondashuvni qo‘llash”<sup>3</sup>, Yaponiyaning Tokio universiteti “Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun hayot xavfsizligini ta’minlash metodikasi”<sup>4</sup>, Avstraliyaning Melburn universiteti bolalar ta’limi va hayot xavfsizligini takomillashtirish bo‘yicha dasturlar va loyihalar ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishmoqda, shuningdek, bolalarning hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan ta’lim metodologiyalari va innovatsion yondashuvlar ustida izlanishlar olib bormoqda. Binobarin, maktabgacha yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi kompetensiyasini shakllanganlik darajasini aniqlash orqali ta’lim jarayonini optimallashtirish bo‘yichada yuqori natijalarga erishish masalalari muammoligicha qolmoqda. Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning hayot xavfsizligini ta’minlash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish kabi bugungi kundagi o‘ta dolzarb masalalarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, “Ta’lim va tarbiyada tanaffus bo‘lmaydi”, degan hikmatli ibora sizlarga yaxshi tanish. Shu sababli biz O‘zbekistonda olib borayotgan demokratik islohotlarimiz jarayonida ta’lim tizimini zamonaviy talablar darajasiga ko‘tarishga ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz”<sup>5</sup> Bu esa, o‘z navbatida, maktabgacha ta’lim tizimining integratsiyalashgan mazmuniga zamonaviy yondashuvlarni singdirish, bolalarda hayot xavfsizligi tushunchalarini shakllantirishning metodik imkoniyatlarini aniqlashtirish, bolalarning fikrlash faolligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon modelini maktabgacha ta’lim tashkiloti va oilaning o‘zaro hamkorligini ta’minlash asosida takomillashtirish hamda ustuvor tamoyillar asosida ishlab chiqish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi PF-60-sonli 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 8 maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son “Maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 9-sentabrdagi 754-son “Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”, 2023-yil 29-apreldagi 171-son

<sup>1</sup> Xusanova S.I. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida «hayot xavfsizligi asoslari» kursi mavzulari orasidagi uzviylikni ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish Ped.fan.dok. dis...avtoref. T.: - 2021. – 15-16 bet.

<sup>2</sup> Sustainable development agenda. www.un.org.

<sup>3</sup> <https://ec.europa.eu/>

<sup>4</sup> <https://www.who.int/>

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish bo‘yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view>.

“O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimini faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** So‘nggi yillarda xavfsizlik va ekologik ta‘lim muammolari yo‘nalishida respublikamiz olimlaridan G.Abdullayeva, N.A‘zamova, Y.Yormatov, O.Yuldashev, A.Hamrayeva, J.G‘afforov, A.Amonov, A.G‘afforovlar o‘z tadqiqotlarida xavfsizlik, ekologik muammolar mazmuni, atrof-muhit va inson munosabatlarining turli iqtisodiy, tabiiy, ekologik, ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o‘rganganlar. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarni har tomonlama rivojlantirishga oid tadqiqotlar F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, N.Sultonova, G.Nazirova, Sh.Sodiqova, M.Esonova tomonidan amalga oshirilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakati olimlaridan T.Santeyeva, A.Sadretdinova, Z.Nartayeva, T.Xromsova, K.Belayaning tadqiqotlari ta‘lim oluvchilarda hayot xavfsizligi ko‘nikmalarni tarkib toptirish, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi bilimlarni rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan.

Xorij olimlaridan J.Peyn, L.Pitcher, A.Adler, A.Maslou, B.Paskal, A.Danese, B.Dupikkalarning ilmiy izlanishlarida omon qolish asoslari, salomatlik va ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish masalalari muvaffaqiyatli o‘rganib chiqilgan.

**Tadqiqotning obyekti** – maktabgacha 6-7 yoshli bolalarga hayot xavfsizligi qoidalarini o‘rgatish jarayoni belgilangan.

**Tadqiqotning predmeti** -maktabgacha 6-7 yoshli bolalarga hayot xavfsizligi qoidalarini o‘rgatish jarayoni mazmuni, shakli, metodi va vositalaridan iborat.

**Tadqiqotning maqsadi** - maktabgacha 6-7 yoshli bolalarga hayot xavfsizligi qoidalarini o‘rgatish metodikasi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** -maktabgacha 6-7 yoshli bolalarga hayot xavfsizligi qoidalarini o‘rgatishning amaldagi holati, muammolari tahliliga ko‘ra pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash;

-maktabgacha 6-7 yoshli bolalarga hayot xavfsizligi qoidalarini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish;

-maktabgacha 6-7 yoshli bolalarda hayot xavfsizligi tushunchalarini shakllantirish mezonlari va ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazi.**

Maktabgacha 6-7 yoshli bolalarda hayot xavfsizligi tushunchalarini shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlari hayot xavfsizligi bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalarni aniqlashga qaratilgan xavfsizlik qoidalariga rioya qilish zarurligini o‘rgatish jarayonida o‘z-o‘zini himoya qilishning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga barqaror ustuvorlik berish asnosida bolalarning aqlli, sog‘lom va o‘tkir zehni bo‘lib ulg‘ayishi kutiladi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ta‘lim jarayonida maktabgacha 6-7 yoshli bolalarning hayot xavfsizligi qoidalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik qarashlar, nazariy yondashuvlar asosida guruhlar kesimida tizimli o‘qitishning metodik ta‘minoti ilmiy-nazariy jihatdan

boyitilgani, ta’lim muhitiga mos tanlangan yondashuvlar natijasining asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati maktabgacha 6-7yoshli bolalarning hayot xavfsizligi qoidalarini shakllantirish samarali metodlarning joriy etilishi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalaridan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tadbirlarni uyushtirishda samarali foydalanish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdullayeva G.A Maktabgacha 6-7 yoshli bolalarga hayot xavfsizligi qoidalarini o’rgatish metodikasini takomillashtirish. Phd dis..avtoref. T.: - 2025. – 5-7-bet.
2. Xusanova S.I. Umumiy o’rta ta’lim maktablarida «hayot xavfsizligi asoslari» kursi mavzulari orasidagi uzviylikni ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish Ped.fan.dok. dis...avtoref. T.: - 2021. – 15-16 bet.
3. Sustainable development agenda. [www.un.org](http://www.un.org) .
4. <https://ec.europa.eu/>
5. <https://www.who.int/>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish bo‘yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view> .